

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ
ФАРҒОНА ПОЛИТЕХНИКА ИНСТИТУТИ
ЭНЕРГЕТИКА ФАКУЛЬТЕТИ
“ЭЛЕКТРОНИКА ВА АСБОБСОЗЛИК”
КАФЕДРАСИ
БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ
ИШНИНГ ҲИСОБЛАШ
ТУШУНТИРИШ ҚИСМИ

ФАРҒОНА - 2012 ЙИЛ

ФАРҒОНА ПОЛИТЕХНИКА ИНСТИТУТИ
ЭНЕРГЕТИКА ФАКУЛТЕТИ
“ЭЛЕКТРОНИКА ВА АСБОБСОЗЛИК” КАФЕДРАСИ

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИГА
ХИСОБЛАШ-ТУШУНТИРИШ ХАТИ

**Битирув малакавий иши мавзуси: Пахта чигитини ажратиш қурилмасини
ишлаш унумдорлигини оширишни микропроцессорли тизимини
лойихалаш.**

Битирув-малакавий иши таркиби :

Ҳисоблаш тушунтириш хати _____ бет
График қисми _____ та вароқдан иборат

Битирувчи 36-08 гуруҳ талабаси: Эргашев Азамат _____

Кафедра мудири: Ғ.А.Набиев _____

Битирув малакавий иш раҳбари: С.М.Абдурахмонов _____

Маслаҳатчилар:

Меҳнат ва атроф – муҳит муҳофазаси

Қисми бўйича: _____ И.Домуладжонов

Бошқа бўлимлар бўйича:

Mundarija.

Mavzu: Paxta chigitini ajratish qurilmasini ishlash unumdorligini oshirishni mikroprotsessorli tizimini loyihalash.

Annatatsiya.....	3
Kirish.....	4
I-bob. Paxta sanoatida ishlab chiqarish qurilmalarini modernizatsiyalash zaruriyati.....	5
1.1 Paxta tozalash korxonalari.	5
1.2 Sanoat korxonalarida variatirlar ularni ishlash prinsiplari.....	9
1.3 Paxta tolasini chigitdan ajratuvchi Jin qurilmasini tuzilishi va ishlash prinsipi...	15
II-bob. Asosiy qism. Qo'llanilgan elektron qurilmalar.....	35
2.1 TRM101 mikroprotsessorli kontroller tuzilishi va ishlash prinsipi.....	35
2.2 Chastotali o'zgartirgich tizilish va ishlash prinsipi.....	46
2.3 TRM101 mikroprotsessorli kontroller va chastotali o'zgartirgichni ulanish prinsiplar sxemasi.....	51
III-bob. Loyihalash qismi. Tola ajratish qurilmasini modernizatsiyalash	53
3.1 Loyihani asosiy sxemasi.....	54
3.2 Mikroprotsessorli TRM 101 qurilmasini ishchi dasturiy tamano-tini loyihaga sozlash.....	56
3.3 Chastota'toli o'zgartirgich qurilmasini ishchi dasturini ish rejimiga sozlash.....	58
IV-bob. Xavfsizlik texnikasi, mehnat va atrof muhitning muhofazasi.....	60
4.1 Ish sharoiti nuqtaiy nazardan loyihalanayotgan qurilmaning tasnifi.....	60
4.2 Loyihalanayotgan obyektning ekspluatatsiya qilishda ish sharoitini taxlili.....	60
4.3. Ish zonasi havosi.....	61
4.4. Ishlab chiqarishda yoritilganlik.....	61
4.5. Ishlab chiqarishda shamollatish.....	62
4.6. Ishlab chiqarishda shovqin va tebranish.....	63
4.7. Texnika xavfsizligi	63

4.8. Yong'in xavsizligi.....	64
Xulosa.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar.....	69

Annotatsiya

Respublikamizda ishlab chiqarish korxonalrida texnologik qurilmalarni hozirgi zamon elektron qurilmalari yordamida yangilash va modernizatsiyalash ustida ishlar olib borilmoqda. Paxta sanoati ham o'zini ishlab chiqarish qurilmalariga ega bu korxonalar qabul qilib olingan paxtalarni tozallab paxta tolasiga va chigitga ajratib boshqa ishlab chiqarish korxonalariga xomashyo sifatida berishdan iboratdir. Paxtani qayta ishlashda tolani ajratish qurilmasi mixim o'rin tutadi. Bu qurilma o'tgan asrni 80-yillarda ishlab chiqilgan bo'lib hozirda ham foydalanilmoqda. Tolani ajratish qurilmalarini yangi elektron qurilmalar asosida modernizatsiyalash mexnat unumdorligini keskin ortiradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi paxta tolasini ijrash qurilmasi Jinni mikroprotessorli qurilmalar asosida modernizatsiyalashga qaratilgan. Bitiruv malakaviy ishi quyidagilardan iborat;

- Paxta tozalash korxonalari;
- Sanoat korxonalarida variatirlar ularni ishlash prinsiplari;
- Paxta tolasini chigitdan ajratuvchi Jin qurilmasini tuzilishi va ishlash prinsipi;
- TRM101 mikroprotessorli kontroller tuzilishi va ishlash prinsipi;
- Chastotali o'zgartirgich tizilish va ishlash prinsipi;
- TRM101 mikroprotessorli kontroller va chastotali o'zgartirgichni ulanish prinsipl sxemasi;
- Mikroprotessorli TRM 101 qurilmasini ishchi dasturiy tamanotini loyihaga sozlash;
- Chastatoli o'zgartirgich qurilmasini ishchi dasturini ish rejimiga sozlash;

KIRISH

Ma'lumki xozirda ishlab chiqarish sanoatida texnologik qurilmalarni modernizatsiya qilish ustida katta ishlar olib borilmoqda. Bu borada mamlakatiz raxbariyat tomonidan qabul qilingan qarorlar xam muxim axamiyat kasb etadi. Ishlab chikarishni modernizatsiyalash uchun tashqi invistitsiyani jalb etish xam zarur. Lekin ko'pchilik xolatlarda texnologik qurilmalarni butunlay yangilash shart emas. Ularni zaruriy qismlarini almashtirish, yangi texnik qurilmalar bilan almashtirish maqsadga muofik bo'ladi.

Paxta sanoati qurilmalari xam yangi texnologiyalar asosida modernizatsiyalanishi zarur. Ularni asosan boshqaruv avtomatika qismlari manan eskirgan. Bu qismlarni kompyuterli boshqarish tizimlari bilan almashtirish paxta sanoati qurilmalarini mexnat unumdorligini ortirib, maxsulot sifatini yaxshilashga olib keladi.

Keyingi yillarda davr talabiga ko'ra respublika paxta tozalash sanoatida yuz berayotgan o'zgarishlar, joriy etilayotgan yangi taxnolagiyalar, paxtani dastlabki ishlashda ko'proq va sifatli tola ishlab chiqarish maqsadida ixchamlashtirilgan texnologiyalarni joriy qilish bilan maxsulot tan narxini kamaytirish, ishchi-xizmatchilarni mehnat sharoitini yaxshilash va og'ir qo'l mehnatini talab qiluvchi ishlarni mexanizatsiyalashtirish bo'yicha amalga oshirilgan jarayonlarni o'z ichiga olganishlar olib borilmoqda.

Davlat standartlariga mos ravishda amalga oshirishda qo'llaniladigan va yangittan joriy etilgan texnika texnologiyalar, elektr asboblari, qurilmalar va asbob uskunalari, ekologik mutanosiblikka muvofiq lashtirilgan materiallar qo'llanilib kelinmoqda. bu esa ishlab chiqarishda yanada yuqori natijalarga erishishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Hammamizga ma'lumki respublikamiz yuqori sifatli tola ishlab chiqaradi va undan kerakli maxsulot ishlab chiqarish sotish natijasida juda ko'p foyda qiladi.

I-bob. Paxta sanoatida ishlab chiqarish qurilmalarini modernizatsiya qilish zaruriyati

1.1 Paxta tozalash korxonalari.

Paxta tozalash korxonalarining asosiy vazifasi xar yili qabul qilinadigan chigitli paxtadan uning tabiiy xususiyatlarini saqlagan xolda yuqori sifatli tola , lint va chigit ishlab chiqarishdan iborat. Bundan tashqari ishlab chiqarish chiqindilarini qayta tozalab , ular tarkibidagi tolalarni ajratib olish hamda urug'lik chigitlarini kasalliklarga qarshi dorilashda ham ishlatiladi.

Paxta tozalash korxonalarini asosiy texnologik mashinasi ikki xil – arrali jin va valikli jin bo'lib , arrali jinlar o'rnatilgan korxonalarda o'rta tolali paxta va valikli jinlar o'rnatilgan korxonalarda esa ingichka tolali paxta ishlanadi.

Mamlakatimizda 4...5 arrali jinlar o'rnatilgan bir bateriyali va ikki bateriyali korxonalar mavjud. Farg'ona viloyatida bunday paxta tozalash korxonalari jami 7 tani tashkil etadi.

Paxta korxonasining malum bir vaqt ichida ishlab chiqargan asosiy mahsulati-tolaning eng ko'p miqdori korxonani ishlab chiqarish quvvati deyiladi. Korxonalarda o'rnatilgan jinlar soni har hil bo'lganligi sababli ularni ishlab chiqarish quvvati ham har hil bo'ladi. Quyidagi rasmda bir bateriya arrali jin o'rnatilgan paxta tozalash korxonasini rejasi;

Paxta tozalash korxonalari hamda paxta punkitlaridagi standartlar:


Texnik kontrol bo'limi:

Paxta tozalash korxonalari hamda paxta punkitlarida chigitli paxtaning va undan olinadigan tayyor maxsulot sifatini tekshirish korxona va paxta tayyorlash punkitlarini texnologik laboratoriyalarin birlashtirgan texnik kontrol(OTK) bo'limini vazifasiga kiradi.


OTK ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat;

Korxona va tayyorlash punktlarida chigitli paxtani qabul qilish , partiyalarga bo'lish va uni saqlash ishlarini to'ri tashkil qilishini tekshirish, paxta tayyorlash punktida fermerlardan qabul qilinayotgan va paxta tozalash korxonasidan kelayotgan

chigitli paxtani sifatini tekshirish; paxta tozalash korxonasida ishlab chiqarilgan maxsulotni tekshirish; paxta tolasi, lint va tolali chiqindilar toylarini to'g'ri ishlashini va to'g'ri markalanishini tekshirish; korxonada va tayyorlash punkitlarida chigitli paxtaning va tayyor maxsulotning sifatini yaxshilash uchun tadbirlar bajarilishini tekshirish; sifatsiz mahsulot chiqarilishining sabablarini aniqlash.



1.1.-rasm Katta paxta tozalash korxonasi sxemasi.



1.2.-rasm Kichik paxta tozalash korxonasi sxemasi


Farg'ona viloyatida mavjud paxta tozalash korxonalari

1.1.-Jadval

Korxonalar nomi	Tashkil topgan yil	Hissadorlik jamiyatiga aylantilishi
Quva PTZ	1913-yil	22.09.1994 y
Toshloq PTZ	1910-yil	31.09.1994 y

Qo'qon-2 PTZ	1875-yil	27.06.1994 y
O'zbekiston PTZ	1910-yil	05.12.1994 y
Beshariq PTZ	1917-yil	22.09.1994 y
Bog'dod PTZ	1993-yil	15.09.1994 y
Rishton PTZ	1997-yil	10.06.1994

1.2.- Jadval Farg'ona viloyatidagi 2009-yil maxsulot tarkibi



Korxonaning texnik kontrol bo'limi paxta tayyorlash punkitlarining ishiga rahbarlik qiladi va ularada bajariladigan ishlarni qo'llab quvvatlaydi.

Korxonani har smenasida chiqariladigan mahsulotni sifatini va texnologik mashinalarni ish sifatini nazorat qilish korxona smena laborantining vazifasiga kiradi. Chigitli paxtani har partiyasini qayta ishlashga topshirish mahsus buyruq- ishlab chiqarish topshirig'iga muvofiq bajariib, bu buyruq dastlabki chigitli paxtning

va chiqariladigan tayyor maxsulotning, urug'lik chigitni ishlash va saqlash sifatini tekshirish.

Chigitli paxta va undan olinadigan mahsulotlarning sifatini tekshirish ishlarida paxta tozalash korxonalari texnik kontrol bo'limlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida har bir viloyat birlashmalarida sifat bo'yicha maxsus markaziy laboratoriyalar tashkil etilgan. Bu laboratoriyalar vazifasiga quyidagilar kiradi;

- a) Paxta tozalash korxonalaridagi maxsulotlarni sifatini nazorat qilish;
- b) Laboratoriya analizlarini Davlat standarti va instruktsiyalariga muvofiq bajarilishini tekshirish;
- c) Laboratoriya asboblari va o'lchash apparatlarini to'g'ri ishlashini nazorat qilish.

1.2 Sanoat korxonalarida variatirlar ularni ishlash prinsiplari.

Uzatish soni o'zgarmas bo'lgan friksion uzatmalar mashinasozlikda ko'p ishlatilmaydi, chunki ular tishli uzatmalarga qaraganda zaifroq ishlaydi. Biroq ish jarayonida yetaklanuvchi val harakatini pog'onasiz, bir tekis o'zgartirish zarur bo'lgan hollarda variatorlardan foydalanish maqul ko'riladi.

Variatorlarning asosi turlari va ularning tuzulishi sxema tarzida 18-jadvalda keltirilgan. Eng oddiy variator birining sirti ikkinchisini yon yog'iga tegib harakatlanadigan ikki g'ildirakdan tuzilgan friksion uzatmadir. Bunday variator vositasida yetaklanuvchi (vertikal) valning harakatini o'zgartirish uchun birinchi g'ildirak o'z o'qi bo'ylab siljiriladi.

Agar yetaklanuvchi valning harakat yo'nalishini o'zgartirish zarur bo'lsa, birinchi g'ildirak o'q bo'ylab suruladi-da, yetaklanuvchi val o'qidano'ng tamonga o'tkaziladi. Demak, birinchi g'ildirak o'z o'qi bo'ylab, ikkinchi g'ildirak chetidan markazga tamon siljir ekan yetaklanuvchi valning tezligi orta boradi.

Birinchi g'ildirak ikkinchi g'ildirak markazdan chetiga tamon siljisa valning tezligi kamayib boradi. Shunday qilib uzatmaning uzatish soni keragicha o'zgartiriladi:

$$\left. \begin{aligned} I_{\max} &= n_1/n_{2\min} \sim D_{2\max}/D_1 \\ I_{\min} &= n_1/n_{2\max} \sim D_{2\min}/D_1 \end{aligned} \right\}$$

Uzatish sonining eng katta qiymatining eng kichik qiymatiga nisbati boshqarish darajasi deb ataladi. Boshqarish darajasi variatorlarning asosiy harakteristikalaridan biri hisoblanadi.

Demak variatorning boshqarish darajasi quyidagicha bo'ladi:

$$R = \frac{i_{max}}{i_{min}} = \frac{n_{2max}}{n_{2min}} = \frac{D_{2max}}{D_{1min}}$$

Nazariy jihatdan olganda D_1 ning qiymati ($D_{2min} \rightarrow 0$ bo'lgani uchun) cheksiz yetishi mumkin. Biroq amalda ko'pincha $R = 3 \div 4$ qiliolinadi, chunki D_2 kamayishi sirpanishning kuchayishiga va ish ko'fitsentini pasayishiga olib keladi.


Bunday variatorlarining foydali ish ko'yifitsenta boshqalarnikiga qaraganda, kichik bo'lsa-da, oddiy tuzilganligi uchun ulardan kam quvvat mehanizm va asboblarda keng ko'lamda foydalaniladi.

Paxta tolasini ajratish qurilmasini ish ishini bajarishda quyidagi xulosalarni qilish mumkin.

1. Modernizatsiya qilinuvchi obyekt to'la taxlil qilingan;
2. Modernizatsiya uchun qo'llanilgan mikroprotsessorli elektron qurilmalarni to'la o'rganilib ularni sozlash uchun tavsiyalar berilgan;
3. Yangi loyihani sutrukтура va prinsipial sxemalar berilgan;
4. Paxta tolasini ajratish qurilmasini modernizatsiyalash loyihasi unversalligi ko'rsatib o'tilgan

Friksion variatorlar vositasida harakat tezlagini pag'onasiz, bir tekisda o'zgartirish mumkin bo'lganligi uchun ulardan avtomatlashtirilgan protseslarda foydalanish juda qulay hisoblanadi. Shu sababli so'ngi yillarda variatorlarni yanada takomillashtirish ustida bir qator ishlar olib borilmoqda.

Uzatish soni roliklarni O o'q atrofida aylantirish yo'li bilan o'zgartiriladi. Roliklar aylanadigan o'q g'ildiraklaridan doimo bir hil masofada joylashadigan qilib tayyorlangan



1.3- rasm Kosasimon sirtli variator

Soʻnngi yillarda variatorlar stanoksozlikda, pavandlash va quyish mashinalarida, tikuv mashinalarda paxta sanoatida keng qoʻllanilmoqda. Friksion variatorlar vositasida harakat tezlagini pagʻonasiz, bir tekisda oʻzgartirish mumkin boʻlganligi uchun ulardan avtomatlashtirilgan protseslarda foydalanish juda qulay hisoblanadi. Shu sababli soʻnngi yillarda variatorlarni yanada takomillashtirish ustida bir qator ishlar olib borilmoqda.

Bu borada STNIIMASH sistemasidagi orginal variator diqqatga sazovordir (3-rasm) Bu variatorda yetakchi va yetaklovchi vaallarning uchlariga kosasimon sirtli ikkita gʻildirak (1 va 2) oʻrnatilgan boʻlib, harakat yetakchi gʻildirakdan yetaklanuvchi gʻildirakka ikkita oraliq rolik (3) yordamida uzatiladi.

Uzatish soni roliklarni O oʻq atrofida aylantirish yoʻli bilan oʻzgartiriladi. Roliklar aylanadigan oʻq gʻildiraklaridan doimo bir hil masofada joylashadigan qilib

tayyorlangan. Agar bunday variator loyihalshda unung geometrik parametirlarini malun tartibda to'g'ri tanlansa, g'ildiraklarni urinish sirtida sirpanish yo'q darajagacha kamaytirish mumkin.

Bu xususiyat kosasimon sirtli variatorlarning asosiy afzalligidir. Ularning kamchiligi shundan iboratki bunday variatorlarni tayyorlash va yig'ishda yuqori darajada aniqlik kerak bo'ladi.

Variator g'ildiraklarini mustahkamlini xisoblash friksion uzatma g'ildiraklarning mustahkamligini hisoblashdan prinsip jihatdan farq qilmaydi.

O'q boylab yo'nalgan siquvchi kuch quyidagich aniqlanadi;

$$Q = mN \cdot \sin(\gamma - \alpha) = \frac{kM_1 \sin(\gamma - \alpha)}{f(R - R(\gamma - \alpha))}$$

Bu yerda, N –kosasimon sirtga tik yo'nalishda tasir etuvchi kuch;

Bu kuchning quyidagicha ekanini hisobga olsak;

$$N = \frac{KP}{f_m} = \frac{KM_1}{fR_1m} \text{ va}$$

$$R_1 = R_0 - R \cos(\gamma - \alpha)$$

Bu yerda, m- roliklar soni (odatda m=2 bo'ladi)

Siquvchi Q kuchni hosil qiloish uchun sharikli qurilma (40 dan foydalaniladi. Bunday qurilma variatorga tushadigan kuchning o'zgarishi bilan siquvchi kuchni o'zgarishini taminlaydi. Ro'lik o'ng tamonga eng katta qiymatga burilganda Q eng kattaga ega bo'ladi. Q ning eng katta qiymatiga qarab siquvchi qurulmadagi burchak aniqlanadi;

$$\operatorname{tg} \beta = \frac{P_1}{Q_{\max}} = \frac{M_1}{rQ_{\max}}$$

Kosasimon sirtli g'ildiraklar ontakt kuchlanishiga tik $N_{\max}$ kuchga nisbatan xisoblanadi;

$$N_{\max} = \frac{M_1}{mr \operatorname{tg} \beta \sin(\gamma - \alpha)}$$

Kosasimon variatorlarning foydali ish ko'rsatkichi 0.95 % ga yetadi. Bunday variatorlar 20 kvv gacha quvvatli mexanizmlarda ishlatiladi va boshqarish darajasi 6.25 gacha bo'ladi. G'ildirak va ro'liklar odatda toblanadigan po'latdan tayyorlanadi. Ayrim hollarda roliklarning gardishi tekstolitdan yasaladi.

Bunday qilinganda g'ildirak va roliklarning o'zaro ishqalanuvi sirti moylanmaydi. So'nggi yillarda ishlatilayotgan variatorlardan yana biri diskli variatorlar (4-rasm). Bu variatorlarda kuch va moment birqancha yetakchi va yetaklanuvchi disklar majmuyi vositasida uzatiladi va uzatish markazlararo masofaning o'zgartirish evaziga o'zgartiriladi.

Bunda yetakchi disklar yetaklanuvchi disklar orasidaxarakatlanib, ularning markaziga yaqinlashadi yoki undan uzoqlashadi. Natijada D_2 ba demak, i o'zgaradi chunki:

$$i = \frac{D_1}{D_2} = \text{var}$$

bu variatorlarda disklar oridagi urinish sirtlaning ko'p bo'lishini taminlaydi.


Demak ;

$$Q = \frac{K_P}{m_f} = \frac{K_2 M}{m_f D_1}$$

Bu erda, m - urinish sirtlari soni, yetakchi disklar sonidan ikki baravar ortiq (odatda $m=18 \div 42$) qilib olinadi.





Disklar yuqori qalinlikkacha toblanadigan po'latdan tayyorlanadi va sermay sharoitda ishlatilari. Diskning yetarli darajada yupqa bo'lishi katta quvvatli mexanizmlar uchun kichik o'lchamli variatorlar yaratish imkonini beradi.

Bunday varatorlar quvvat 400 kvv gacha, boshqarish darajasi 4.5 gacha, foydali ish



1.4-rasm Diskli variator

koyfitsenti esa 0.8÷0.9 gacha oraliqda bo'ladi.

Variator turlari	Oraliq qatorsiz	Oraliq qatorli
Yassi sirli		
Sharsimon sirtli		
Kolosnik sirli		

1.3-jadval Variator turlari

1.3 Paxta tolasini chigitdan ajratuvchi Jin qurilmasini tuzilishi va ishlash prinsipi

Tolani ajratish (jinlash) – chigitli paxtadan tolani ajratish jarayonidir.

Tolani chigitdan ajratish uslubiga qarab tola ajratish arrali va valikliga bo'linadi.

O'rta tolali paxtaning barcha navlari arrali jinlarda qayta ishlanadi. Arrali jinlar to'rtta 3XDDM yoki ikkita 4DP-130 jinlash kamerasiga qo'yilgan 5DP-130 rusumli jinlar, tola tozalagichlar va tashish uskunalari bilan jamlangan qatorlarda guruhlanadi.

Jinlarning ishi – yuqori sifatli tolani eng oz miqdorda chiqindilar hosil qilib mashina ko'rsatmasida ko'rsatilgan ish unumdorligi taminlangan holda bir hil tukdorlikdagi chigit chiqish va eng yuqori sifatli tola chiqishini taminlashdan iboratdir.

Chigitli paxta quritish tozalash va tozalash sexlarida kondusion namlikkacha quritilib, xas-cho'plardan tozalangandan keyin zavodning bosh korpusiga jinlash uchun yuboriladi. Jinlash paxtani dastlabki ishlash texnologik protsessining asosiy operatsiyasi xisoblanib, bunda paxta tolasini chigitdan ajratiladi. Jinlash protsessi chigitli paxtaning tolasini chigitdan mehanik kuch bilan ajratishdan iborat.

Tolani chigit bilan bog'lanish kuchi yakka tolani uzilish kuchiga qaraganda 2...3 marta kam bo'lgani uchun jinlash protsessida o'zini tabiiy xususiyatlarini (uzunlik, ingichkalik, pishganlik darajasi, uzulish kuchlari) saqlagan holda tubidan uzilib, chigitdan ajralib chiqadi. Ingichka tolali paxta tolalarining chigit bilan bog'lanish kuchi o'rta tolanikidan ancha kam va ularni tukli sirtlarga ishqalanish kuchi hisobiga ham chigitdan ajratib olish mumkin.

Shuning uchun ingichka tolali paxtalar tolasini chigitdan valikli jinlarda va o'rta tolali paxtalarining tolasini esa arrali jinlarda ajratiladi. Valikli jinlarni asosiy ish organi valik bo'lib, uning tukli sorti ingichka tolali paxtani tolasiga shikast yetkazmaydi. Arrali jinlarda ish organi sifatida arrali disklardan terilgan silindr xizmat qiladi, bu jinda tolani chigitdan ajratish uchun arrali disklar bilan kolosnikli panjara birgalikda ishlaydi.

Bularning paxtaga birgalikda tasiri tola bilan chigitning sifatiga salbiy tasir qilishi mumkin. Arrali jin kamerasida chigitli paxta valigi hosil bo'ladi. Ingichka tolali paxta arrali jinda ishlansa, tolalar valikda kuchli gajaklanib, ularda nuqsonlar paydo bo'ladi.

Chigitli paxtani jinlashda quyidagi texnologik talablar bajarilishi kerak; chigitlardan yigirishga yaroqli tolalarning hammasini ajratish, jin ish organlarining tolaga ta'siri natijasida tola va chigitda nuqsonlar paydo bo'lmasligi; chigitli paxta bo'lakchalari jindan chiqayotgan tola yoki chigitga qo'shib ketmasligi; o'luk va iflos aralashmalardan tozalash effekti yuqori bo'lishi; chiqayotgan chigitning to'qligini va o'lukdagi tola miqdorini rostlash imkoniyati bo'lishi kerak.

Jinlash protsessida tolani iflosliklardan qisman tozalash va toladan o'lukni ajratish bilan birga quyidagi nuqsonlar paydo bo'lishi mumkin; chigit po'chog'i yopishgan tolalar, uzilgan va shikastlangan tolalar, tugunchalar, buralib qolgan tolalar, gajaklar, puch chigitlar. Jinlashda nuqsonlar paydo qilmaslik uchun jinlarni va boshqa mashinalarni texnologik talablarga muvofiq ishlatish va ularni doimo durut holda saqlash kerak.

Valikli jinlash

Valikli jinlash konstrusiyasi

Ingichka tolali paxtaning tolasini chigitdan ajratish uchun valikli jinlar ishlatiladi. Bu usulda jinlash tolalarga zarar yetkazmaydi va ularni tabiiy yuqori sifatlari saqlanadi. Valikli jinlash protsessi chigitli paxtani tolalarini aylanuvchi valikning sirti bilan unga qattiq bisib qo'yilgan qo'zg'almas pichoq orasiga kiritib qisish va tolalardan ajratishdan iboratdir.

Bu protsessni amalga oshirish uchun tolani ish valiga ishqalanish kuchi tolani po'lat pichoqqa ishqalanish kuchidan katta bo'lishi kerak. Valikli jinlashda ish valigi sirtiga chigitli paxta to'xtovsiz yetkazib berilishi va bir-biridan ajratilgan tola tola va chigit olib ketilishi zarur.

Valikli jinlash urush qismining konstruksiyasiga qarab har xil tuzilgan bo'ladi. Urush qismlari ilgarilanma-qayta yoki aylanma harakatlanib ishlaydi. XDG valikli

jinlarda ilgari qayta harakatlanadigan urush organi ishlaydi. Bu prinsip bir necha yuz yillardan beri qo'llanib kelinmoqda. Bunday jinlar zo'riqib ishlashi sababli ularning bir soatli ish unumi 45 kg dan oshirib bo'lmaydi. 1954 yildan Mari paxta tozalash zavodini injeneri Valuyevning ixtirosi bo'yicha yasalgan (XDV) valikli jinlar ishlatila boshlandi va ish unumi 3-4 marta oshirishga erishildi. Bu konstruksiyali jinda urush organi aylanma harakat qiladi. Urush organlari (valiklar) ikki xil bo'ladi: yumshoq va qattiq uradigan bo'lishi mumkin.

Yumshoq uradigan urush organi val, uchiga yupqa po'lat tunukadan yasalgan bolg'acha, o'rnatilgan yumshoq amartizator dan iborat, urush bolg'chalari va yumshoq amartizatorlar valga bolt, handalar bilan mahkamlanadi. Jinlash seksiyasida urush organin ish valigi ga zazorsiz o'rnatilgan. Ish valigi valga o'rnatilgan texnikaviy teri yoki suniy materil (RKM) disklardan iborat.

Bu valikka plastinkali prujina bilan qo'zg'almas pichoq o'rnatilgan. Qo'zg'almas pichoq bilan urush valigi orosi 0.5.....1.0 mm ga teng. Jinlash protsessi quyidagicha bajariladi. Chigitli paxta aylanib turgan ish valigi ga uzatiladi, valik sirti esa tolani o'ziga yopishtirib olib qo'zg'almas pichoq ostiga tortib kirgizadi, shunda chigit qo'zg'almas pichoq tig'iga tortilib qoladi.

Tolani chigitdan ajrtuvchi kuch P quyidagi formula bilan topiladi:

$$P = T_1 - T_2 = N(\mu_1 - \mu_2)$$

Bunda; T_1 va T_2 –tolaning ish valiga va qo'zg'almas pichoqqa ishqalanish kuchlari; μ_1 va μ_2 – tolani ish valiga va qo'zg'almas pichoqqa ishqalanish ko'rsatkichlari.

P kuchi tasirida tolalarning faqat bir qismi chigitdan ajraladi, asosiy ko'pchilik qismi esa aylanib turgan bolg'achalar urgandagina chigitdan ajraladi. Bolg'cha urganda faqat tarang tortilgan tolalar izilib, qolganlari esa uzilmay navbatdagi bolg'achani kelib urilishini kutadi. Xamma tolalardan ajratilgan to'r tagiga tushib mashina ostidagi koveyer bilan tashqariga olib chiqib ketiladi.

Yumshoq urush qismli jin inversion tasirli bo'lib, bunda chigit tolalardan tez aylanayotgan urush bolg'chalari kinetik energiyasi hisobiga ajratiladi.

XDV-2M va DV valikli jinlar shu prinsipda ishlaydi. Aylanuvchi urush organli valikli jinlarning ish unumi XDG markali jinlarnikidan ancha yuqori. Yumshoq uradigan urush organli jinlarning asosiy kamchiligi shundaki, amortizatorning ish muddati qisqa bo'lib, tolasi qattiq yopishgan yangi paztalarda bolg'acha qattiq urganda chigitlar shikastlanadi.

Valikli jinning qattiq urish organining yumshoq urush organidan farqi shundaki, bu organ silindr shaklida bo'lib, uning sirtiga po'latdan yasalgan urish plonkalari qattiq o'rnatilgan.

Qattiq o'rnatilgan urush o'rgani valikning aylanish chastotasi urush organi yumshoq urush valigining chastotasidan deyarli uch marta kam. Aylanish chastotasining kam bo'lishiga sabab shuki, bir urush chigitdagi tolalarning xammasi uzilmay faqat tarang tortilganlari uzilgani uchun chigitga tasir qiladigan kuch ham kichik bo'ladi. Qattiq urush organini foydali tomoni ham shundadir.

DVM markali jinning texnik xarakteristikasi;

Diametri,mm

Silliq disklar	300
Tishli disklar.....	270
Oraliq disklar.....	246
Disklarni val o'qiga nisbatan burchagi.....	$71^{\circ}34'$
Baraban uzunligi mm	2000
Aylanish burchak tezligi rad/s.....	36.7 (350)
Tishlar balandligi mm.....	5
Tishlar qadami mm.....	6
Ish barabani;	
Diametri mm	300-260
Aylanish burchak tezligi rad/s	14.7 (140)

Ish barabani yasalgan materialRKN-2 KMK

Ish qismlari o'rtasidagi oraliq;

Qoziqchali baraban bilan to'rli sirt orasi 13±3,1

Ignali baraban bilan to'rli sirt orasi13±3,1

Ignali baraban bilan qaytarish baraban orasi15±2,1

O'rnatilgan elektromotorlar quvvati kVt10.5

Jumladan:

Ish barabani uchun7.5

Urush barabani uchun 3.0

Jinning ish unumdorligi kg/soat100....130

Arrali jinlash

Arrali jinga birinchi patent Amarikab Qo'shma Shtatlarida o'qituvchi Eli Uyetniyga berilgan edi. Uning ixtro qilgan mashinasi mixsimon tishlar qoqilgan yog'och barabandan iborat bo'lib, bu tishlar ro'paradagi taxtaning taraqsimon qismidan o'tkazilgan. U ishlayotgan vaqtda chigitli paxtaning tolalari shu taroq orqali torti o'tkazilar, chigitlar esa o'tmay qolib jinlash protsessi sodir bo'lar edi.

Chigitdan ajratilgan tolalarni arra tishlaridan parrakli baraban ajratib olib , mashinadan tashqariga chiqaradi.Arra tishlari bilan tilalarni ilib olib, ularni chigitdan kolosnik panjalar orqali ajratish isuli hozirgacha saqlanib kelmoqda.


Chigitli paxtani jinlashdan oldin iflosliklardan tozalaydigan mashinalar chegaralangan bo'lganligi uchun 1879-yilda «Eklips» markali ikki kamerali arrali jinga patent berilgan bo'lib, bu jinning ishlash asoslari AQShda chiqariladigan jinlarda hozirgacha saqlanib kelinmoqda.

Ikki kamerali jinlarda chigitli paxtani iflosliklardan tozalash uchun mo'ljallangan birinchi kamera S.N. Nusratov malumotlariga ko'ra, arrali jin unumdorligiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun O'zbekistonda 1940- yildan beri bir kamerali arrali jinlar ishlatilmoqda.

Arrali jin taminlagichlari.

Taminlagich chigitli paxtani jinning ish kamerasiga yaxshi titkilab va oxirgi marta iflosliklardan tozalab, bir tekista taminlab beradi.

Quyidagi rasmda ZXAD markali to'rt barabanli taminlagich sxemasi;



1.5-rasm ZXAD to'rt kamerali taminlagich

Chigitli paxta taminlagich ustida joylashgan taqsimlovchi shnek yordamida shaxtaga, bundan esa taminlagichga tushuriladi. Bir-biriga qarshi aylanadigan taminlash valiklari 1 chigitli paxtani shaxtadan olib, bir tekista qoziqli baraban 2 ga uzatadi. Bu baraban chigitli paxtani titkilab keyingi qoziqchali-plonka baraban 3 .4 . 6 larga uzatadi.

Bu barabanlar chigitli paxtani titkilashni davom ettiradi va to'rtli sirt ustidan o'tkazib, mayda iflosliklardan tozalaydi. Oxirgi baraban 6 diametri 50.....70 mm li valdab yasilib, uzun qoziqlari bo'lgani uchun chigitli paxta orasida bo'lgan kanop parchalarini o'ziga o'rab parchalab tashlaydi. Iflos aralashmalar to'rtli sirt orqali o'tib, mashina ostiga tushurilib, shnek 7 bilan mashinadan tashqariga olib ketiladi.


Taminlagichni mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi 7....10 % ni tashkil etadi. Taminlagichni ish organlari quyidagicha harakatga keltiriladi; xarakat jinning arrali validan tasmali uzatma orqali kanob tutish barabani 6 ga uzatiladi. Bu baraban 350 min^{-1} chastota bilan aylanadi va uning ikkinchi tomonidan xarakat umumiy tasma orqali boshqa barabanlarga shu tezlikda uzatiladi; qoziqchali-plonkali baraban 4 ning ikkinchi uchiga ikki kirimli cherviyak o'rnatilgan bo'lib, bu cherviyak harakatni vertikal valikka uzatib, uni $23-24 \text{ min}^{-1}$ chastota bilan aylantiradi (cherviyak shestirnasini soni $z = 29$).

Vertikal valikning uchiga to'qqiz tishli shestrnya o'rnatilgan. Bu shesterniyaning vertikal valik bo'ylab dasta yordamida siljitib, uni taminlovchi diskning biror aylanasiidagi chuqurchalar bilan tishlashtirish mumkin. Taminlash diskida 5 aylana bor bo'lib, ularning har birida har xil sonli (66, 56, 46, 36, 27 tadan) teshiklar bor. Demak, taminlash valiklarining aylanish chastotasi vertikal valikdagi shesterniya taminlash diskining qaysi aylanasi bilan tishlashiga bog'liq.

PD markali bir barabanli taminlagich sxemasi quyida rasmda keltirilgan. Bu taminlagich to'rt barabanli taminlagichdan o'zini oddiy tuzilganligi (ish organlari soni kam) va unga hizmat ko'rsatish hamda tamirlash ning qulayligi bilan farq qiladi, ammo uning mayda xas-cho'plardan tozalash samaradorligi 5...6 % ga kam.

Taminlash valiklarining aylanish chastotasi taminlash valigi 1 ning o'qiga o'rnatilgan IV A markali impulsli variart orqali boshqariladi.

Bu barabanlar chigitli paxtani titkilashni davom ettiradi va to'rli sirt ustidan o'tkazib, mayda iflosliklardan tozalaydi. Oxirgi baraban 6 diametri 50.....70 mm li valdab yasali, uzun qoziqlari bo'lgani uchun chigitli paxta orasida bo'lgan kanop parchalarini o'ziga o'rab parchalab tashlaydi. Iflos aralashmalar to'rli sirt orqali o'tib, mashina ostiga tushurilib, shnek 7 bilan mashinadan tashqariga olib ketiladi. Kosasimon vriatorlarning foydali ish koyifitsenti 0.95 % ga yetadi. Bunday variatorlar 20 kvv gacha quvvatli mexanizmlarda ishlatiladi va boshqarish darajasi 6.25 gacha bo'ladi. G'ildirak va ro'liklar odatda toblanadigan po'latdan tayyorlanadi. Ayrim hollarda roliklarning gardishi tekstolitdan yasali.



1.6-rasm PD markali bir barabanli oziqlantirgich sxemasi


PD taminlgich quyidagicha ishlaydi. Chigitli paxta taminlgich ustiga o'rnatilgan shaxtaga tushadi. Bir biriga qarama qarshi aylanadigan taminlash valiklari 1 chigitli paxtani shaxtadan bir tekisda olib qiziqli baraban 2 ga uzutadi, bu baraban paxtani titkilab to'rli sirt 3 ustidan sudrab o'tib uni mayda has cho'laradan ohirgi marta tozalaydi. Tozalangan chigitli paxta qoziqli baraban yordamida nov 4 ga uzatiladi vajinning ish kamerasiga tushadi.

Taminlagichlarning mehanik xarakteristiksi;


Ish unumdorligi, t/soat	3-4.5
Qoziqlar bilan to'r orasi, mm	15-18
Aylanish chastotasi, min^{-1}	
Taminlash valiklari	0-20
Qoziqli-plankalar barabanlar	350-400
Tozalash samaradorligi, %	15gacha

Arrali jinlar vazifasiga qarab laboratoriya va ishlab chiqrish jinlariga bo'linadi. Arrali valdagi arralarsiniga qarab 10, 80, 90, 100 va undan ko'p arrali arralarining tishlaridan tolalarni ajratib olish aparatining konstruksiyasiga qarab, cho'tkali va havo oqimi bilan ishlaydigan, xohavo oqimini o'rnatilish soplosiga qarab , yuqoridan tola ajratadigan va pastan tola ajratadigan jinlarga bo'linadi.


7-rasmda havo oqimi bilan ishlaydigan va arra tishlaridan tolani pasttan ajratadigan XDD markali 80 arrali jin sxemesi, 8- rasmda havo oqimi bilan ishlaydigan arra tishlari tolani yuqoridan ajratadigan XDD-2M markali 100 arrali jin sxemasi keltirilgan.XDD-2M markali jinlar XDD markali jinlardan ishchi kamerasing shakli va konstruksiyasi, ko'tarish mexanizmi hamda kolosniklarining takomillashtirilganligi bilan farqlanadi.




1.7-rasm XDD markali jin.



1.8-rasm XDD-2M markali jin



1.9-rasm DP-130 markali avtomatlashtirilgan jin sxemasi



1.10-rasm ZXDD markali avtomatlashtirilgan arrali jin

Ikkila jinlarning umumiy hamda muhim qismlari (7-rasmga qarang) bruslar 2 boltlar 3 bilan mahkamlangan o'ng va chap cho'yan devorlardan iboratstanina 1; ketingi brusga o'rnatilgan taminlagich ; 80,90,100,arraisilindr 4; peshtoq brusi 6; kolosnik panjara 7; fartuk 8 va chigit tarog'i 9 li sih kamerasi 5 dan iborat. Ish kamersi oldingi yuqori brusga kronshteyn 10 bilan shashnirli osilgan.

Arra tishlaridan tolani ajratadigan pnevmatik apparat 11; havo chiqadigan soplo 12 va tola turubkasi ulanadigan bo'g'oz 13 lardan iborat. Toladan o'lukni ajratish uchun koziryo'k 14; tozalash cho'tkasi 15 va tashqariga chiqarish konveyeri 16 xizmat qiladi.

Jinning ish unumini oshirish uchun jindan chiqayotgan chigitlarning to'qligini puxta nazarat qilish lozim. Buning uchun valga o'rnatilgan arrali disklar soni val uzunligini o'zgartirmasdan 80 dan 90 gacha yetkazish lozim. Bu o'z navbatida tukli chigitlarni jindan chiqishiga to'sqinlik qilib, jinning ish unumini oshishiga olib keladi. Valdagi arralar soni 80 dan 90 gacha yetkazilganda ularning orasi 19.46 mm dan 16.35 mm gacha kamayadi.

Bu esa tukli chigitlarni jindan tozalanmay chiqishiga to'sqinlik qilib, tolada qisqa tolalarni ko'payishiga olib keladi. 10- rasmda ZXDD markali avtomatlashtirilgan arrali jin sxemasi va 9-rasmda DP-130 markali avtomatlashtirilgan arrali jin sxemasi berilgan. Jinni chigitli paxta bilan taminlash avtomatlashtirilgan bo'lib, ish vaqtida arrali val talab qiladigan elektr quvvatiga qarab, o'zgartirib turiladi.

Ish kamerasini ko'tarish va tushurish, ish vaqtida kamerani siljitish ham avtomatlashtirilgan. So'nggi yillarda AQSHda valdagi arralar sono ko'paytirilgan jinlar ishlatilmoqda. «Platt-lyummus» firmasida arralar soni 128 gacha, «Murrey» firmasida esa 112 gacha ko'paytirilgan. Arra diskarni diametri «Moss Gordin» firmasida 406....457 mm gacha kattalashtirilgan.

Ish kamerasi uzunlashib, uning ichidagi chigitli paxta valigini aylanishi qiyinlashgani uchun harakatni tezlashtiruvchi turli moslamalar kiritila boshlandi. 1-jadvalda XDD, XDD-2M, ZXDD, va DP-130 markali arrali jinlar texnik xarakteristikasi berilgan.

1.4-jadval


Ko'rsatkichlar	XDD	XDD-2M	ZXDD	DP-130
Bir arrani ish unumi kg/soat	10 gacha	10.....12	12.5	10.....16
Arali silindrning aylanish chastotasi min ⁻¹	730	730	730	730
Valdagi arralar soni	80	100	80..90	130
Arra diametri,mm	320	320	320	320
Arradagi tishlar soni	280	280	280	280
Oraliq qisqartmalar qalinligi, mm	18.45	16.35	18.45	18.45
Tozalash samaradorligi %	25...30	25.....30	25.....30	10.....15
Havo sarfi m ³ /s	0.5.....0.6	0.5.....0.6	0.5.....0.6	0.6.....0.8
Havo bosimi	1570.....1960	1570.....1960	1570.....1960	3795

Pa				
Quvvar kVt	40	45	55	79.5

Arrali jinlarni texnologik protsessi

Paxta tozalash kaohonasining bosh binosiga keltirilgan chigitli paxta separator va taqsimlovchi konveyer har bir jin ustida o'rnatilgan taminlagich shaxtasiga so'ngra jinning ish kamerasiga kelib tushandi.

Jinning ish kamerasiga (10-rasm) tushgan chigitli paxtani tarog' birning yonida aylanayotgan arra 4 tishlari ilib olib, AB yoyi bo'ylab sudrab kolosnik 5 ga olib keladi. Tishlarga ilingan chigitli paxta bo'lshekslari boshqa paxta bo'lakchalariga ilashib, ilarini ham tortadi, kameradagi hamma chigitli paxta aylana boshlaydi. Shunday qilib, arraga qarshi tomonga aylanuvchi chigitli paxta valigi hosil bo'lib, u arra tishlarini paxta tlosi bilan uzlusiz taminlaydi.




1.11- rasm. Arraning chigitli paxta valigiga tasiri.

Arra tishlariga ilingan tolalar kolosniklarning orasidan oilb o'tiladi, chigitlar esa o'ta olmay to'xtab qoladi , shunda tolalar chigitdan ajraladi. Arra tishlaridagi tolalar soplodan chiqqan havo oqimi bilan ajratilib , umumiy tola tortish turbasiga uzatiladi. Kolosniklarni ish qismida tirqishlarni kengligi 3.2 mm dan (eng kichik chigit o'lchamlaridan) katta bo'lmagani uchun chigit o'tib keta olmasdan , aylanib turgan chigitli paxta valigiga qo'shilib ketadi va hamma tolalari ajralmaguncha aylanishda davom etadi.

Xamma tolalardan ajratilgan chigitlar ilashish qobilyatini yoqotadi, chigitli paxta valigidan ajralib , kolosnik sirtiga so'ngra uning tirqishlaridan pastga tushadi. Jindan chiqayotgan chigitlarni to'qlik darajasi taroq bilan o'zgartirib turiladi. Jinning ish kamerasiga chigitli paxtani to'xtovsiz berish , tola va tozalangan chigitlarni olib ketish arrali jinni to'xtovsiz ishlashini taminlaydi.

Ish kamerasi

Arrali jin ish kamerasining sxemasi 11-rasmida berilgan . Ish kamerasini shakli jinning ishlashi uchun katta ahamiyatga ega bo'lib uning ayniqsa ish unumiga , talab qiladigan quvvatiga va ishlab chiqarilayotgan tolaning sifatiga katta tasir ko'rsatadi.



1.12-rasm. Ish kamerasi sxemasi

Arrali jinning ish kamerasi peshtoq brus 1, kolosniklar 2, pastki kolosnik brusi3, chigit tarog'i 4, pastki fartuk 5, va oldingi fartuk 6 lardan ibarat. Arra diskleri kolosniklarning tirqishlaridan kamera ga 47.....52 mm kirib , arraning kirish yoyi AB ni tshkil etadi.

Ish kamerasiga quyidagi texnologik talablar qo'yiladi: uning qismlari paxtada nuqson hosil qilmasligi va chigitlarni shikastlantirmasligi , kamerani profili chigitli paxtaning aylanishiga mumkin qadar to'sqinlik qilmasligi kerak . kamera ga chigitli paxtaning kelushiga , undan tola va chigitlarning chiqishiga to'siqlar mumkin qadar kam bo'lishi kerak .

Barqaror jilash protsessi uchun quyidagi formulani yozish mumkin;

$$\Pi = QA/t_{o,r}$$

Bunda Π - ish kamerasini tola bo'yicha ish unumi; Q- kameradagi chigitli paxta massasi; A- jilash protsessini o'zgaras harakteristikasi; $t_{o,r}$ - ish kamerasida tola va chigitni o'rtacha turush vaqti.

Bu formulaga ko'ra ish kamerasining ish unumini kameradagi chigitli paxtaning massasini oshirish yoki tola bilan chigitning kamerada turadigan o'rtacha vaqtini kamaytirish yo'li bilan oshirish mumkin .chigitli paxta massasi oshirish uchun kamerani ko'ndalang kesimini kattalashtirish kerak, bu esa (arra diametri o'zgarmaganda) chigitli paxta valigini devorlariga ishqalanish kuchuni ko'paytirib uning aylanishiga to'sqinlik qiladi.

Kameradagi chigitli paxta valigida tolalardan butunlay ajrab chiqishga tayyor bo'lgan chigitlar valik massasining 50 protsandan ko'p qismini tashkil etadi . shuning uchun ish kamerasini ish unumini faqat chigitning kamerada o'rtacha turush vaqtini kamaytirish xisobigagina oshirish mumkin.

Arra diskning diametri 320 mm va aylanish chastotasi 730 min⁻¹ bo'lganda arra tishining chiziqli tezligi 12 m/s ga ten bo'ladi. Chigitli paxta valigining aylanish chastotasi kameraning shakliga va jinning ishlashiga qarab 100 dan 130 min⁻¹ gacha boradi. Agar kameradagi chigitli paxtani valigining shartli diametrini arrali disklar

diametriga teng bo'lsa, chigitli paxta valigining sirtida joylashgan paxta bo'lakchalarini chiziqli tezligini 2 m/s teng bo'ladi.

Demak, arra tishining chigitli paxta massasiga kesib kirish nisbiy tezligi 10 m/s bo'ladi. Chigitli paxta valigining o'lchamlari va shakli to'g'risidagi bu farazlarimizni qabul qilsak, jinning ish kamerasida sodir bo'ladigan xodisalarning kinematikasi to'g'ri deb o'ylash mumkin. Haqiqatda esa chigitli paxta valigining qirgimi ish kamerasining shakliga mos va murakkab bo'ladi.

AEB yoyi ustidagi tiso'lakchasining tezligi arra tishining chiziqli tezligiga (12 m/s) yaqin keladi. B zonasida paxta bo'lakchalari qo'zg'almas kolosniklarga duch kelgani uchun tezliklarini 1.1.....1.5 m/s gacha kamaytiradi. BVG yoyi qismida ularning tezligi 2.0....2.2 m/s gacha ortadi. GDA yoyi qismida chigitli paxtalar tezligi yana oshib 2.5.....2.8 m/s gacha yetadi va shu tezlik chigit tarog'i zonasida yana qo'shiladi.

Chigitli paxta bo'lakchalarini chiziqli tezligi chigitli paxta valigining sirtida bu tartibda o'zgarib turishini chigitli paxta valigini tashkil qiluvchi paxta bo'lakchalarining ichki sijishi borligini va ish kamerasidagi paxta bo'lakchalari dinamikasining ancha murakkab ekanligini ko'rsatadi.

Jin arrasini ishlashi

Arrali jinlarning asosiy ish organi hisoblangan arralar maxsus yupqa po'lat tunika (ГОСТ 2052-60 bo'yicha U85 markali uglerotli po'lat yoki ГОСТ 1435-60 bo'yicha sovuqlayin cho'zilib termik ishlangan po'lat) dan yasaladi.

